


QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2019 yil yanvar-iyun)


2019 yil yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, respublikada tashqi savdo aylanmasi 374,2 mln. AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,2 %ga ko'paydi. Shu jumladan, eksport hajmi 219,0 mln. AQSh dollarga va import hajmi 155,3 mln. AQSh dollariga yetdi. Tashqi savdo saldosini 63,7 mln. AQSh dollarini tashkil qildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining tashqi savdo aylanmasi (mln. AQSh dollari)




Joriy yilning yanvar-iyun oylarida, respublika tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 38,3 %ni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 99,7 %ni tashkil qilgan, boshqa davlatlarning ulushi esa 61,7 % bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,5 %ga oshgan. Shuningdek, eksport hajmida MDH davlatlari 49,5 %ni, boshqa davlatlar 50,5 %ni va import hajmida MDH davlatlari 22,4 %ni, boshqa davlatlar 77,6 %ni tashkil qildi.

2019 yil yanvar-iyun oylarida respublika tashqi savdo aylanmasida MDH va boshqa davlatlarning ulushi (umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)



Shu bilan birga ta'kidlab o'tish kerakki, 2019 yilning iyun oyida eksport qilingan tovar va xizmatlar, may oyiga nisbatan 4,6 mln. AQSh dollarga kamroq eksport qilindi va 39,3 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Tovar va xizmatlar importi hajmi esa 26,2 mln. AQSh dollarini tashkil qilgan bo'lib, bu esa may oyiga nisbatan 0,3 mln. AQSh dollariga ko'proqdir.

2019 yil yanvar-iyunda tovar va xizmatlarning oylik eksport-import ko'rsatkichlari dinamikasi (mln. AQSh dollari)



2019 yil yanvar-iyun oylarida respublika tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar ketma-ketligi quyidagicha ko`rinish olgan:

**Respublika tashqi savdo aylanmasida
yuqori ulushga ega davlatlar**

(mln. AQSh dollari)

Davlat nomi	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasi	
				ulushi, %	o'sish sur'ati, %
Xitoy	99,0	54,5	44,5	26,4	107,4
Rossiya	89,9	73,5	16,4	24,0	92,4
Turkiya	43,5	29,4	14,1	11,6	72,1
Qozog'iston	42,8	29,6	13,3	11,4	118,5
Koreya Respublikasi	32,1	10,3	21,8	8,6	2,4 b.
Latviya	13,2	10,9	2,3	3,5	77,0
Buyuk Britaniya	7,3	0,0	7,3	2,0	6,0 b.
Vietnam	6,6	0,0	6,6	1,8	2,0 b.
Ukraina	3,9	1,8	2,2	1,1	103,0
Eron	3,7	0,2	3,5	1,0	6,3 b.
Hindiston	3,0	0,0	2,9	0,8	13,0 b.
Litva	2,9	0,0	2,9	0,8	6,2 b.
Turkmaniston	2,9	0,3	2,5	0,8	2,3 b.

Respublikamizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2019 yil yanvar-iyun oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 38,3 %ni tashkil etdi hamda tashqi savdo aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 99,7 %ni tashkil etdi. Boshqa xorijiy davlatlarning respublika tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2018 yilning yanvar-iyun oylarida 60,4 %ni tashkil qilgan bo'lsa, joriy yilning ushbu davrida esa tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 61,7 %ga etdi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining ayrim hamkor davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi dinamikasi

(mln.AQSh dollari)


Davlat nomi	2017 yil yanvar-iyun	2018 yil yanvar-iyun	2019 yil yanvar-iyun
Xitoy	79,2	92,2	99,0
eksport	65,4	68,9	54,5
Import	13,8	23,3	44,5
saldo	51,6	45,6	10,0
Rossiya	62,6	97,3	89,9
eksport	42,5	70,5	73,5
import	20,1	26,8	16,4
saldo	22,4	43,7	57,1
Turkiya	68,1	60,3	43,5
eksport	63,7	55,5	29,4
import	4,4	4,8	14,1
saldo	59,3	50,7	15,3
Qozog'iston	22,8	36,1	42,8
eksport	22,1	29,5	29,5
import	0,7	6,6	13,3
saldo	21,4	22,9	16,2
Koreya Respublikasi	14,0	13,6	32,1
eksport	0,4	1,4	10,3
import	13,6	12,2	21,8
saldo	-13,2	-10,8	-11,5
Latviya	21,4	17,2	13,2
eksport	21,2	14,9	10,9
import	0,2	2,3	2,3
saldo	21,0	12,6	8,6
Buyuk Britaniya	0,5	1,2	7,3

Davlat nomi	2017 yil yanvar-iyun	2018 yil yanvar-iyun	2019 yil yanvar-iyun
eksport	0,0	0,0	0,0
import	0,5	1,2	7,3
saldo	-0,5	-1,2	-7,3
Vietnam	0,2	3,2	6,6
eksport	0,2	1,0	0,0
import	0,0	2,2	6,6
saldo	0,2	-1,2	-6,6
Ukraina	6,8	3,8	3,9
eksport	2,3	2,8	1,8
import	4,5	1,0	2,1
saldo	-2,2	1,8	-0,3
Eron	1,6	0,6	3,7
eksport	1,5	0,1	0,2
import	0,1	0,5	3,5
saldo	1,4	-0,4	-3,3
Hindiston	0,3	0,2	3,0
eksport	0,1	0,0	0,0
import	0,2	0,2	3,0
saldo	-0,1	-0,2	-3,0
Litva	0,6	0,5	2,9
eksport	0,0	0,0	0,0
import	0,6	0,5	2,9
saldo	-0,6	-0,5	-2,9
Turkmaniston	0,1	1,3	2,9
eksport	0,1	0,2	0,3
import	0,0	1,1	2,6
saldo	0,1	-0,9	-2,3


EKSPORT

2019 yil yanvar-iyun oylarida eksport hajmi 219,0 mln. AQSh dollariga teng bo'ldi. Eksport tarkibida tovarlar 99,5 % ulushga ega, bular asosan kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (82,5 %), oziq-ovqat mahsulotlari (7,7 %) guruhlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Tovar va xizmatlar eksporti tarkibi (ming AQSh dollari)



Tovar va xizmatlar eksporti ulushi, (%)




Eksport tarkibi

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %
Eksport	219,0	85,7	100,0	108,4	101,6	100,0	110,5	74,2	100,0
Paxta tolasi	0,3	-	0,2	-	-	-	0,3	-	0,3
Oziq-ovqat mahsulotlari	16,8	117,8	7,7	6,6	178,9	6,1	10,1	96,2	9,2
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	180,7	79,1	82,5	97,6	97,2	90,1	83,1	64,9	75,2
Energiya manbaalari va neft mahsulotlari	2,2	50,9	1,0	0,8	164,5	0,8	1,4	36,2	1,3
Mashina va asbob-uskunalar	0,0	24,2	0,0	0,0	13,9	0,0	0,0	116,5	0,0
Xizmatlar	1,1	108,6	0,5	0,8	135,1	0,8	0,3	70,5	0,3
Boshqalar	17,7	2,5 b.	8,1	2,5	193,0	2,2	15,2	2,6 b.	13,7

Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning oylar kesimidagi o'sish sur'atlari bo'yicha quyida keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, joriy yilning yanvar-iyun oylari davomida eng yuqori o'sish sur'ati may oyida kuzatilgan.

Tovar va xizmatlar eksportining o'sish sur'atlari (o'tgan oyga nisbatan, %)




Shuningdek, tovar va xizmatlar eksporti o'sish sur'atlarining tahliliga asosan, 2019 yilning iyun oyida eksport qilingan tovar va xizmatlar may oyiga nisbatan 39,9 %ga kamaygan.

Xizmatlar eksporti hajmi 1,1 mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 0,5 %ini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 8,6 %ga o'sganligi kuzatildi.


Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi safarlar (45,5 %), moliyaviy xizmatlar (42,6 %) va transport xizmatlari (10,5 %) hissasiga to'g'ri keladi.

Xizmatlar eksporti tarkibi, (%)




Tovar va xizmatlar eksporti dinamikasi tahliliga ko'ra, 2019 yilning iyun oyi mobaynida eksport qilingan tovarlar hajmi, may oyiga nisbatan 4,7 mln. AQSh dollariga kam eksport qilindi va 39,0 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar eksporti esa 0,2 mln. AQSh dollarga etgan.

2019 yil yanvar-iyunda tovarlar va xizmatlar eksporti dinamikasi
(oylar kesimida, mln. AQSh dollari)




Respublika eksportida asosiy hamkor davlatlarning ulushi
(yanvar-iyun)

2018 YIL



2019 YIL



Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Xitoy va Qozog'iston hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport hajmining 72,0 %ini tashkil qiladi. Rossiya Federatsiyasi, Xitoy va Qozog'istonga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlardan iborat ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Qoraqalpog'iston Respublikasining asosiy hamkor davlatlarga amalga oshirgan eksport hajmi

Davlat nomi	Mln. AQSh doll.		Ulushi, %		O'rni	
	2018 yanvar- iyun	2019 yanvar- iyun	2018 yanvar- iyun	2019 yanvar- iyun	2018 yanvar- iyun	2019 yanvar- iyun
Rossiya	70,5	73,5	27,6	33,6	1	1
Xitoy	68,9	54,5	27,0	24,9	2	2
Qozog'iston	29,5	29,6	11,6	13,5	4	3
Turkiya	55,5	29,4	21,7	13,4	3	4
Latviya	14,9	10,9	5,8	5,0	5	5
Koreya Respublikasi	1,4	10,3	0,5	4,7	9	6
Ukraina	2,8	1,8	1,1	0,8	6	7
Qirg'iziston	2,3	1,7	0,9	0,8	7	8
Tojikiston	1,0	1,3	0,4	0,6	11	9
Estoniya	1,9	1,0	0,7	0,5	8	10
Iroq	1,4	1,0	0,5	0,5	10	11

Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

2019 yilning yanvar-iyun oylarida jami 18 376,7 tonna meva-sabzavot mahsulotlari 6 934,1 ming AQSh dollariga eksport qilindi (o'sish sur'ati – 172,7 %). Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2019 yilning yanvar-iyun oylarida 14 129,7 tonna sabzavotlar 4 460,6 ming AQSh dollariga eksport qilingan.

Shuningdek, 2 570,4 tonna meva va rezavorlar 1 815,7 ming AQSh dollariga eksport qilingan bo'lib, eksport hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2 028,5 tonnaga ko'paygan.

Meva-sabzavot mahsulotlarining tarkibi





Shuni aytib o'tish joizki, mamlakatimizda eksport salohiyatini kengaytirish, yangi bozorlarni o'zlashtirish natijasida meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalarni eksport qilish hajmi oshib bormoqda. Jumladan, 2019 yilning yanvar-iyun oylarida uzum va qovun-tarvuz eksport hajmi 398,2 ming AQSh dollariga yetdi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,2 barobarga o'sgan).

Respublikamizda yetishtirilgan meva va sabzavot mahsulotlarining asosiy bozorlari eksport geografiyasi

Davlat nomi	2018 yil yanvar-iyun			2019 yil yanvar-iyun		
	tonna	ming AQSh doll.	ulushi, %	tonna	ming AQSh doll.	ulushi, %
Qozog'iston	18 896,0	3 266,6	81,4	13 487,0	5 011,1	72,1
Rossiya	466,5	302,8	7,5	3 676,5	1 242,3	17,9
Bolgariya	-	-	-	66,7	310,6	4,5
Qirg'iziston	-	-	-	69,1	109,5	1,6
Ukraina	-	-	-	21,5	101,1	1,5
Turkiya	72,0	46,1	1,1	502,6	66,0	1,0
Ruminiya	-	-	-	252,0	36,3	0,5
Turkmaniston	10,0	7,3	0,2	275,9	32,5	0,5
Xitoy	-	-	-	25,5	24,7	0,4


2019 yil yanvar-iyunida meva va sabzavot mahsulotlarining tarkibi (umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)




IMPORT

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida import hajmi 155,3 mln. AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 45,1 %ga o'sdi. Import tarkibida eng katta ulush mashina va asbob uskunalar (56,6 %), kimyo mahsulotlari va buyumlari (9,9 %), kimyo mahsulotlari va buyumlari (9,9 %), oziq-ovqat mahsulotlari (8,9 %) va xizmatlar (4,1 %) guruhlarini hisobiga to'g'ri keldi.

Tovar va xizmatlar importi tarkibi (ming AQSh dollari)



Tovar va xizmatlar importi ulushi, (%)




Import tarkibi

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %
Import	155,3	145,1	100,0	34,8	94,3	100,0	120,4	171,9	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari	13,8	2,7 b.	8,9	13,5	2,7 b.	38,8	0,3	3,3 b.	0,2
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	15,4	112,7	9,9	1,6	63,5	4,6	13,8	123,7	11,5
Energiya manbaalari va neft mahsulotlari	4,2	151,9	2,7	0,8	77,6	2,4	3,4	198,1	2,8
Qora va rangli metallar	1,6	60,8	1,0	0,4	21,9	1,2	1,2	159,2	1,0
Mashina va asbob-uskunalar	87,9	176,1	56,6	6,6	182,0	19,0	81,3	175,6	67,5
Xizmatlar	6,3	115,9	4,1	0,9	40,1	2,5	5,4	166,8	4,5
Boshqalar	26,0	94,4	16,8	11,0	52,9	31,5	15,0	2,2 b.	12,5

Import qilingan tovar va xizmatlarning oylar kesimidagi o'sish sur'atlari bo'yicha quyida keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, joriy yilning yanvar-iyun oylari davomida eng yuqori o'sish sur'atlari aprel oyida kuzatilgan.

Tovarlar va xizmatlar importining o'sish sur'atlari dinamikasi (o'tgan oyga nisbatan, %)




Shuningdek, tovar va xizmatlar importi o'sish sur'atlarining tahliliga asosan, 2019 yilning iyun oyida import qilingan tovar va xizmatlar may oyiga nisbatan 3,6 %ga kamaygan.

Qoraqalpog'iston Respublikasiga asosiy hamkor davlatlardan amalga oshirilgan import hajmi

Davlat nomi	Mln. AQSh doll.		Ulushi, %		O'рни	
	2018 y. yanvar-iyun	2019 y. yanvar-iyun	2018 y. yanvar-iyun	2019 y. yanvar-iyun	2018 y. yanvar-iyun	2019 y. yanvar-iyun
Xitoy	23,3	44,5	21,8	28,7	2	1
Koreya Respublikasi	12,2	21,8	11,4	14,0	3	2
Rossiya	26,8	16,4	25,0	10,5	1	3
Turkiya	4,8	14,1	4,5	9,1	5	4
Qozog'iston	6,6	13,3	6,1	8,5	4	5
Buyuk Britaniya	1,2	7,3	1,1	4,7	8	6

Vietnam	2,3	6,6	2,1	4,3	7	7
Eron	0,5	3,5	0,4	2,2	10	8
Hindiston	0,2	2,9	0,2	1,9	12	9
Litva	0,5	2,9	0,4	1,8	11	10
Turkmaniston	1,1	2,5	1,0	1,6	9	11
Latviya	2,3	2,3	2,1	1,5	6	12


Xizmatlar importi tarkibi, (%)



Xizmatlar importi hajmi 6,3 mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining 4,1 %ini tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 15,9 %ga o'sdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi boshqa ish yuzasidagi xizmatlar (81,8 %) hamda moliyaviy xizmatlar (8,8 %)dan iborat bo'ldi.


2019 yil yanvar-iyunda tovarlar va xizmatlar importi dinamikasi

(oylar kesimida, mln. AQSh dollari)



Shu bilan birga ta'kidlab o'tish kerakki, 2019 yilning o'tgan davri mobaynida respublikaga import qilinayotgan tovar va xizmatlar iyun oyida, may oyiga nisbatan 0,1 mln. AQSh dollarga ko'p import qilingan bo'lib, shundan tovarlar 0,3 mln. AQSh dollarga ko'p va xizmatlar 0,2 mln. AQSh dollarga kam import qilingan.

Respublika importida asosiy hamkor davlatlarning ulushi (yanvar-iyun)



2019 yilning yanvar-iyun oylarida respublikaga 55 dan ortiq xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 6 ta eng yirik bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi, Koreya Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Qozog'iston va Buyuk Britaniya hamkor davlatlaridan jami import hajmi 117,4 mln. AQSh dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 75,6 %ini tashkil qiladi.

Yuqorida qayd etib o'tilganidek, import tarkibida asosiy ulushni tashkil qilayotgan mashina va asbob-uskunalar, kimyo mahsulotlari va buyumlari hamda oziq-ovqat mahsulotlari asosan qaysi davlatlardan respublikamizga olib kirilayotganligini quyidagi sxemalardan ko'rish mumkin.

Mashina va usbob-uskunalar import qilingan asosiy hamkor davlatlar

DAVLAT NOMI	XITOIY	TURKIYA	BUYUK BRITANIYA	VIETNAM	KOREYA RESPUBLIKASI
mln. AQSH doll.	41,8	8,4	6,7	6,5	3,8
O'tgan yilga nisbatan, %	2,1 b.	3,4 b.	12,0 b.	2,9 b.	3,7 b.
Ulushi, %	47,6	9,5	7,6	7,4	4,3

Kimyo mahsulotlari va buyumlari import qilingan asosiy hamkor davlatlar

DAVLAT NOMI	KOREYA RESPUBLIKASI	POLSHA	ROSSIYA	TURKIYA	QATAR
mln. AQSH doll.	7,4	1,2	1,1	0,7	0,7
O'tgan yilga nisbatan, %	110,5	8,2 b.	83,1	3,2 b.	-
Ulushi, %	47,8	8,0	6,9	4,8	4,8

Oziq-ovqat mahsulotlari import qilingan asosiy hamkor davlatlar

DAVLAT NOMI	QOZOG'ISTON	ROSSIYA	TURKMANISTON	XITOIY
mln. AQSH doll.	11,2	1,7	0,4	0,2
O'tgan yilga nisbatan, %	3,2 b.	7,8 b.	-	4,5 b.
Ulushi, %	81,0	12,4	3,2	1,5

Yurtimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida mamlakatimizning eksport salohiyati oshib bormoqda.

Shuningdek, hukumatimiz tomonidan bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o'rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel.:71-230-82-06**